
“RAIFFEISEN RESEARCH” O‘Z TAHLILIIY HISOBOTIDA O‘ZBEKISTONNI MARKAZIY OSIYONING “POLSHA”SI SIFATIDA E‘TIROF ETDI



Joriy yilning 17 may kuni “Raiffeisen Research” tomonidan **“O‘zbekiston iqtisodiyotiga nazar: Polsha va Ukraina izidan”** (*Uzbekistan Economic Insights: On the footsteps of Poland and Ukraine*) nomli tahliliy hisobot chop etildi.

“Raiffeisen Research” – Avstriyaning ikkinchi yirik banki

“The Raiffeisen Banking Group”ning tarkibiy bo‘linmasi hisoblanib, uning tarkibiga kiruvchi boshqa tashkilotlar, jumladan “Raiffeisen Bank International AG” hamda korporativ mijozlar uchun keng qamrovli makroiqtisodiy tadqiqotlar va kapital bozorlari bo‘yicha tahlillarni amalga oshiradi.

“Raiffeisen Bank International AG” investitsion banki – “The Raiffeisen Banking Group” tarkibiga kiradi va asosiy faoliyatini Avstriya hamda Markaziy va Sharqiy YEvropa mintaqasida olib boradi.

“Raiffeisen Bank International AG” O‘zbekiston bilan ko‘p yillik hamkorlik tajribasiga ega bo‘lib, “Sanoatqurilishbank” ATB, “Ipoteka-bank” ATIB va “Uzauto Motors” AJning korporativ obligatsiyalarini chiqarish va xalqaro moliya bozorlarida joylashtirishda faol ishtirok etgan.

Hisobot mualliflarining fikriga ko‘ra, keng miqyosdagi islohotlar dasturi ortidan O‘zbekiston o‘zini **Markaziy Osiyoning “Polsha”si** sifatida tanitdi. Jahon moliyaviy inqirozi davrida (2008-2009 yy.) Polsha kabi O‘zbekiston ham 2020 yilgi koronavirus pandemiyasi inqirozi sharoitida ijobiy iqtisodiy o‘shishni saqlab qolib, muqarrar iqtisodiy inqirozning oldini olishga erishdi.

Bunga hisobotda bir qator iqtisodiy faktorlar asos qilib ko‘rsatildi. Xususan:

• **O‘zbekistonda nisbatan yuqori iqtisodiy o‘shish inqirozga qarshi samarali iqtisodiy siyosat natijasidir.**

COVID-19 pandemiyasining salbiy oqibatlariga qaramay O‘zbekiston YalMning o‘shishi 2016-2022 yillarda o‘rtacha **5 foizni** tashkil qildi.

Bu, o‘z navbatida, Sharqiy YEvropa va Markaziy Osiyo mintaqasidagi o‘rtacha YalM o‘shish – **2,5 foizga** nisbatan yuqori hisoblanadi.

Ta’kidlash lozimki, uzoq muddatni ko‘zlagan **oqilona iqtisodiy siyosat, bardoshlilik hamda inqirozni samarali boshqarish** O‘zbekistonga mintaqa mamlakatlariga nisbatan yuqori iqtisodiy o‘shishni qayd etish imkonini berdi.

Shuningdek, olib borilayotgan **barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan fiskal siyosat** davlat qarzini sezilarli darajada (YalMning 40 foizidan) oshirmagan holda inqirozga qarshi mazmunli kurashish uchun zamin yaratdi.

Natijada, nisbatan yuqori iqtisodiy o‘shish istiqbollari saqlab qolinib, ularning prognoz ko‘rsatkichlari 2021-2022 yillarda 5-6 foiz atrofida bo‘lishi kutilmoqda.

• **Institutsional islohotlarning birinchi bosqichida pul-kredit siyosati va bank tizimi isloh qilinmoqda.**

Uzoq muddatli institutsional islohotlar bilan bir qatorda pul-kredit siyosatini yuritish va bank tizimini nazorat qilishda **Markaziy bankning mustaqilligini** ta’minlash hamda **samarali bank tizimini** shakllantirish – **uzoq muddatli iqtisodiy transformatsiyaning** muhim bosqichi yoki poydevori hisoblanadi.

Xususan, Markaziy bank mustaqil ravishda o‘zining konservativ va cheklangan yuqori foiz siyosatini yuritmoqda va bu, o‘z navbatida, inflyatsion bosim yuqori bo‘lgan joriy sharoitlarda **asosli hisoblanadi.** Shu bilan birga, yuqori foiz stavkalari **mahalliy kapital bozoriga xorijiy investorlarni jalb qilishda** qo‘l keladi hamda valyuta kursida kuchli tebranishlarning oldini olishga xizmat qilishi mumkin.

Umuman olganda, ijobiy va uzluksiz kapital oqimi O‘zbekistonga keng miqyosli islohotlarni amalga

o'shish jarayonida **investitsion loyihalarni moliyalashtirish va joriy operatsiyalar hisobi defitsitini qoplash** uchun zarurdir.

Mamlakatning 33 mlrd. AQSh dollari miqdoridagi (taxminan YaIMning 60 foizi) oltin-valyuta zaxiralari 16-20 oylik import xarajatlarini qoplash uchun yetarli bo'lib, O'zbekistonning ushbu jarayonga **yaxshi tayyorlanganligini** ko'rsatadi.

· **Islohotlarni amalga oshirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda xorijiy investorlar ishtirok etmoqda.**

O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan faol savdo aloqalari natijasida **tashqi savdo hajmi** so'nggi 5 yilda (2016-2020)

40 foizga oshib, yuqori o'sish dinamikasini qayd etilmoqda. Shunga qaramay, respublikada 2026 yilga kelib tashqi savdo hajmini yana qariyb 2 barobarga (YaIMning 60 foizi) oshirish salohiyati mavjud.

Samarali pul-kredit siyosati va valyuta islohotlaridan so'ng, xalqaro moliyaviy institutlar yordamida **bank tizimi isloh qilinmoqda**. Bunda, davlat ulushi mavjud banklarning **bozor mexanizmlariga** asoslangan biznes modeliga transformatsiyasi hamda 2025 yilga qadar bank tizimining jami aktivlaridagi davlat ulushini **85 foizdan 40 foizga** tushirish ko'zda tutilgan.

Maqsadli transformatsiya bank tizimidagi raqobatga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, erkin bozor iqtisodiyotiga o'tish, narxlarning barqarorlashishi va **xususiy sektorning rivojlanishi**, milliy valyutada kreditlashning ortishi va uzoq muddatda **dollarlashuv darajasining pasayishiga** imkon beradi.

· **Xalqaro banklarning O'zbekistonga bo'lgan qiziqishi sezilarli darajada ortmoqda.**

Xalqaro banklar O'zbekiston va respublika emitentlarining

2019-2021 yillarda xalqaro moliya bozorlarida joylashtirilgan jami 3 mlrd. AQSh dollari miqdoridagi **suveren va korporativ xalqaro obligatsiyalarini** sotib olish bilan birga, **7 mlrd. AQSh dollari miqdoridagi kredit liniyalarini** taqdim etgan.

G'arb banklari tomonidan O'zbekiston uchun ajratilgan kreditlar 2012 yilda 1 mlrd. AQSh dollaridan 2020 yilda 6 mlrd. AQSh dollariga oshgan. Uzoq muddatli istiqbolda mazkur ko'rsatkichlarning yanada o'sishi kutilmoqda.

Bu, o'z navbatida, O'zbek banklarining cheklangan depozit bazasi natijasida yuzaga kelgan moliyaviy resurslarga bo'lgan talabini qondirishga xizmat qiladi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2021-05-22 10:08:30